

## THE ROLE OF MOVEMENT GAMES IN CHILDREN'S PHYSICAL AND MORAL DEVELOPMENT

Shodmonova Sanobar Chorievna

Termez branch of the Tashkent Medical Academy

Senior Teacher

### ANNOTATION

In this article, you will learn about the importance of movement games in the physical and moral development of children and the theoretical, practical, developmental and role of play in the formation of children's psyche in the formation of children's activities.

**Keywords:** movement games, children, physical development, play, role play, educational tool, play activities.

### O'YIN

tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O'yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san'at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo'shib kelgan.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

a) taasurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'satish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirish o'yinning mazmunini tashkil qiladi. A.R.Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ayishiga qarab, jinsiy to'fovutlarga binoan kengayib boradi:

a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi:

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o'yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o'yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar).

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ulanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi.

O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilar ga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o'rnini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o'rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o'yinlari o'zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o'yin mazmunida aks etgan jihatga o'z munosabatini bildirish imkonini beradi.

2. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o'rin egallab, u eng avvalo, o'yin orqali ta'lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim.

3. O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me'yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar.

4. O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. O'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'ularini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Bolalarni kollektivchilik, mexnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini xis kilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muxim masalalari xisoblanadi. Bola maktabga qadam qo'yan birinchi kundan boshlab ularda mexnatga nisbatan muxabbat uyg'otish, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlagan ishni oxiriga etkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak.

Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, jumladan bolalarning sevimli o'yinlaridan foydalanish ayni muddaodir.

O'yinlar hayotdagi to'siqlarni engish xamda xar xil xislat va qobiliyatlarni ruyobga chikarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarning turli kompleksini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, odatda, bolalar sevib o'ynaydigan, ularga kuvonch baxsh etadigan musobaqa elementlari xam harakatli o'yinlarga kiradi.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taqlid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni kuzatadi, undagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olamni bilib oladi, binobarin, unda turmush xodisalariga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi.

O'quvchi turmushdagi, mexnat soxasidagi tabiat xodisalari va jonivorlar xayotidagi xar xil narsalarni taqlid kilib o'ynar ekan, bu xodisa va harakatlarning ma'nosini anglay boradi, asta-sekin hayotiy tajriba orttiradi, qiyinchiliklarni engishga o'rganadi, unda harakat ko'nikmalari xosil bo'ladi va tasavvur tobora boyib boradi.

O'yinlar, chunonchi yurish, yugurish, sakrash, irg'itish yoki uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bola harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta axamiyatga ega bo'ladi.

Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat xam taraqqiy eta boradi, yurak va nafas sistemasining faoliyati yaxshilanadi.

Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchungina emas, balki aqliy va axloqiy jixatdan tarbiyalash uchun muxim axamiyatga ega. Ko'plashib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishish uchun farosatini va tadbirkorligi, qat'iyatini ko'rsatishi, jamoat oldida faqat javobgarlik xissini sezadigan bo'lishi kerak.

Tarbiyachilar va jismoniy tarbiya o'qituvchilar harakatli o'yinlarning tashkilotchisi va raxbarlaridirlar.

Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jixatdan yaxshi unib o'sishlariga, salomatliklari yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining yanad mustaxkamlanishiga yordam beradi.

Bolalarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat kila olish imkonini beradigan zarur bilimlarini berish va kerakli harakat malakalari xosil qilishi lozim.

Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari, bolalarda turli gimastika mashqlarga, jismoniy mashqlar, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otishi, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim malalar hosil qilishi shart.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarda axloqiy normalarining tarkib topishi va, shuningdek, estetik va mexnat tarbiyasi vazifalarining xam bajarilishiga erishish lozim, harakatli o'yinlarni o'tkazishda, tarbiyachi, o'qituvchining tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda mas'uliyatlidir.

O'yinni o'rganish jarayonini shunday uyushtirish kerakki, unda ular o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishni, kollektivchilik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mexnagga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgansin.

O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan qiziqarli o'tkazish juda muxim axamiyatga ega.

Ammo o'yin turini tanlashning o'zi xamma xam tarbiyaviy vazifani bajaravermaydi.

Harakatli o'yinlar tashkil qilinishi va o'tkazilishdagi tarbiyaviy axamiyatga ega bo'lishi juda muxim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozavchilar oyushmasi Adabiyot jam g'armasi nashriyoti. Toshkent — 2006
2. Termiz Davlat Universiteti Maktabgacha Ta'lim Metodikasi Kafedrası "MAKTABGACHA PEDAGOGIKA" fanidan Ma'ruza matni. 2018
3. Shoista Sodiqova. Maktabgacha pedagogika (darslik) «Tafakkur Bo'stoni» Toshkent—2013.
4. Olimovna K. G. The importance of the criteria of pedagogical technologies attraining highly qualified personnel //Dostijeniya nauki i obrazovaniya. – 2017. – №.5 (18).
5. Xakimova N. S., Xabibova G. G. A. AVLONI-PROSVETITEL, PEDAGOGI REFORMATOR SHKOLBY //Voprosy nauki i obrazovaniya. 14.
6. Nurulloyev F. Oilada sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhit //SENTR NAUCHNYYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.
7. Nurulloyev F. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaga nisbatan hurmat  
2. munosabatini hakllantirish //SENTR NAUCHNYYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). –  
3. 2020. – T. 2. – №. 2.
8. Kamilova G. A., Kurbanova G. R., Djabbarova S. Z. Osobennosti formirovaniya pedagogicheskix navykov u vospitateley doshkolno-obrazovatelnyx uchrejdeniy //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
9. Zarafshon J. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiyani shakllantirish metodlari //SENTR NAUCHNYYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №.1.
10. Zarafshon J. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiyani shakllantirish metodlari //SENTR NAUCHNYYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)
11. Zarafshon J. MAKTABGACHA TA'LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK JARAYONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //SENTR NAUCHNYYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – T.1. – №. 1.